

**“TALABA TALABAGA HOMIY” FOND FAOLIYATINI OLIY TA’LIM
MUASSASALARIDA TASHKIL ETISH**

Mamatmurodov Farrux Farxod o‘g‘li

Xususiy huquq fakulteti tyutori

Toshkent davlat yuridik universiteti

Email: mamatmurodovfirdavs@gmail.com

Tel: +998933005005

Annotatsiya: Maqolada hukumat va nodavlat tashkilotlarning oliy ta'limga kirishni istagan talabalar uchun stipendiya kreditlari va stipendiyalar taqdim etishdagi roli tahlil qilinadi. Ushbu tashabbuslar ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, barcha guruhlarining teng ta'lim olishini ta'minlash va iqtisodiy to'siqlarni kamaytirishga qaratilgan. Shuningdek, dasturlarning samaradorligi va takomillashtirish yo'llari muhokama qilinadi.

Kalir so'zlar: Budjet, kontrakt,

Barcha guruhlarining teng ta'lim olishini ta'minlash maqsadida hukumat va nodavlat tashkilotlar oliy ta'lim olishni xohlovchi talabalar uchun stipendiya kreditlari va stipendiyalarni taklif qiladi. Bunga Milliy Oliy Ta'lim Jamg'armasi Korporatsiyasi (PTPTN), Malayziya Ta'lim Vazirligi (MOE), Davlat Xizmat Departamenti (JPA) va Majlis Amanah Rakyat (MARA) kabi tashkilotlar misol bo'la oladi. Biroq, hukumat tomonidan stipendiyalar shaklida ajratiladigan oliy ta'lim mablag'lari kamaytirilib, ularning o'rnini talabalar krediti egalladi. Ushbu kreditlar va stipendiyalar talabalar uchun kontrakt to'lovlari, turar joy hamda kundalik xarajatlarni qoplashga mo'ljallangan.

Oliy ta'limda o'qiyotgan talabalarni moliyalashtirish manbalari

a) Budjet

Ba'zi davlatlarda ta'lim mahalliy budjet orqali moliyalashtiriladi (Avstriya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya va Norvegiya). Germaniyada esa ta'lim moliyalashtirilishi desentralizatsiyalangan bo'lib, mablag'larning 74% shtatlar tomonidan ajratiladi.

b) Aholi

Aholi ta'lim muassasalarining moliyalashtirilishida to'lov-kontrakt asosida o'qish orqali ishtirok etadi. Ayrim davlatlarda darsliklar bepul beriladi yoki ijara asosida taqdim etiladi.

c) Korxonalar

Korxonalar o'z xodimlarini tayyorlash uchun malaka oshirish kurslarini tashkil qiladi yoki talabalar uchun stipendiyalar ajratadi.

d) Homiylik va xayriya

Ta'lim muassasalariga xayriya va homiylik mablag'lari ko'plab kompaniyalar va nodavlat tashkilotlari tomonidan taqdim etiladi.

e) Vaucher tizimi

Yevropa va AQShda ta'limni moliyalashtirishning yana bir usuli – vaucher tizimidir. Bu tizimda soliq to'lovchilar tomonidan to'langan soliqning bir qismi muayyan ta'lim muassasasiga ajratiladi.

f) Xalqaro resurslar

Xalqaro kreditlar rivojlanayotgan davlatlarda ta'lim moliyalashtirishning 10% ini tashkil etadi.

g) O'z-o'zini moliyalashtirish

Ba'zi o'quv muassasalari o'z mablag'lari hisobiga faoliyat yuritadi. Bunga turli loyihalar, ijara daromadlari, korxonalarga xizmatlar ko'rsatish kabi manbalar kiradi.

Ko'pgina rivojlangan davlatlarda talabalarga ta'lim kreditlari berish tizimi mavjud. Masalan:

Finlandiya – kredit foiz stavkasi 3,25% dan 6,25% gacha, to'lov muddati 10 yil

Daniya – to'lov muddati 15 yil

Norvegiya – 80% talabalar kreditlardan foydalanadi

AQSh – talabalarga davlat tomonidan kafolatlangan kreditlar beriladi

Bugungi kunda universitetda talabalarni har tomonlama qo'llab quvvatlash, ular o'rtasida o'quv, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy muhitni yuqori sifat darajasiga ko'tarish yuzasidan tizimli chora-tadbirlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, yoshlar daftari, ayollar daftari, temir daftar, boquvchisini yo'qotgan, shuningdek, chin yetim va mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga har tomonlama moddiy va ma'naviy ko'mak berib borilmoqda.

Shu bilan birga talabalarning bandlik holatiga ham e'tibor berilib, ishlashga ishtiyoqi mavjud talabalar aniqlanib, ish bilan ta'minlanmoqda. Ammo, ayrim talabalar o'z sohasi doirasida tajriba orttirish uchun emas, balki moddiy yetishmovchiligi sababli kontrakt summasini to'lash uchun ishlamoqda. Davlat ishlarida 0.5 yoki 0.25 stavkada ishlaganligi sababli oylik ish haqi yuqori emas. Shu sababli, talabalarning ko'pchiligi kontraktini to'lash maqsadida xususiy sektorda, ya'ni ta'lim yo'nalishi doirasida bo'lmagan ish joylarida ishlamoqda. Umumiy jihatdan olganda talabalarning bandlik darajasiga ijobiy hissa qo'shadi. Ammo, bu quyidagi muammolarni ham keltirib chiqarmoqda:

Birinchidan, talabalar kunduz kuni o'qiganligi sababli ish faoliyati asosan kechqurun bo'lib, bu talabalarning o'z ustida ishlashiga sarflanadigan vaqtlari hisobidan bo'ladi.

Ikkinchidan, talabalar ishdan to'g'ri dars mashg'ulotlariga kelganligi sababli leksiya va seminarlarda darslarni sifatli darajada o'zlashtirishga qiynaladi.

Shu bilan birga moddiy qiynalganlarga yordam berish bo'yicha aniq tizim mavjud emas

Agar g'arb davlatlari oliy ta'lim muassasalari tajribasiga qaraydigan bo'lsak, talabalarni moddiy qo'llab-quvvatlash maqsadida turli xil grandlar va fondlar tashkil etilgan. Yevropa oliy ta'lim muassasalaridagi talabalarni moddiy qo'llab-quvvatlash tizimini har tomonlama chuqur o'rganib, tadqiq etgan holda universitetimizning mavjud moddiy bazasi va talabalarning ijtimoiy holatidan kelib chiqib, talabalarning kontrakt to'lovlarini ma'lum shart va muddatli qayta to'lov asosida to'lab berishga qaratilgan fond tashkil etish universitetimizning talabalarga moddiy jihatdan yordam berishga qaratilgan maqsad va vazifalarga muvofiq bo'lar edi.

Fond faoliyati quyidagicha amalga oshiriladi:

Talaba dastlab fond komissiyasiga o'quv yilining har semestri boshida bir semestr yoki bir necha semestrlarning kontraktini to'lash bo'yicha ariza bilan murojaat. Komissiya talabgorlarning arizalarini ko'rib chiqib, saralab oladi va ular bilan shartnoma tuzadi. Kontraktlari to'lab berilgan talabalar ishga joylashganidan so'ng shartnomada nazarda turilgan muddat va miqdorda oylik ish haqidan muayyan miqdordagi pul mablag'i fondning hisob raqamiga kelib tushadi. Kelib tushgan pul mablag'lari xuddi shu tartibda qolgan talabalarga to'lab beriladi va bu talabalar ham ishga joylashganidan so'ng fondga oylik ish haqining ma'lum miqdorini o'tkazib boradi.

Quyidagi 1-ildoda tahminiy muddat va miqdorlar sxemasi ro'yxati keltirilgan.

Ro'yxatga qaralsa, talaba fondga ariza yozgan va arizasi ma'qullanib fond tomonidan shartnoma asosida 2024/2025 o'quv yilining 2-semestri uchun kontraktini fond to'lab berilgan. Talaba universitetni tamonlagan va oylik ish haqi 4.000.000 so'mlik ishga kirgan. Har oy ushbu ish haqining 15% i miqdoridagi, ya'ni 600.000 ming so'm pul mablag'i avtomatik tarzda fond jamg'armasiga kelib tushgan. Agar 2024/2025 yilgi o'quv yilida xuddi shu tartibda jami 50 nafar talabaga kontrakt to'lanib, umumiy miqdorda 311.111.150 so'm pul mablag'i to'langan bo'lsa va ushbu talabalar yuqoridagi miqdordagi to'lovlarni amalga oshirgan bo'lsa, 2022/2023 o'quvyiliga kelib 50 nafar talabaning fond jamg'armaga to'lagan pul mablag'i 540.000.000 so'mni tashkil etadi. 2025/2026 o'quv yilida 6.222.223 so'mlik kontrakt to'lovlarini to'lash amalga oshiriladigan bo'lsa, tahminan 86 nafar talabaning kontraktini to'lash imkoniyati paydo bo'ladi. Bu 2024/2025 o'quv yilidagiga nisbatan 36 nafar

ko'proq talabaga kontraktini to'lab berish imkoniyatini yaratadi va fondning talabalar qamrovi doimiy tartibda yildan-yilga kengayib boradi.

Ushbu fond talaba talabaning kontraktini to'lash tizimiga asoslangan va faoliyati amalda tashkil etilib, tizimli ravishta tartibga solib borilsa, quyidagi ijobiy natijalarga erishiladi:

Kontraktni to'lashga qiynalayotgan talabalarga moddiy jihatdan yordam berishning aniq tizimi shakllanadi.

Hozirda talaba kontraktini to'lay olmay talabalar safidan chetlashtirilayotgan holatlar tez-tez uchrayib turibdi. Birgina xususiy huquq fakultetining o'zida 2 semestr davomida 2 nafar talaba shu sabab tufayli talabalar safidan chetlashtirildi. Shuningdek, ko'plab talabalar kontraktini to'lashga qiynalayotganligi aytib, dekanatga murojaat qiladi. Dekanatxodimlari xomiylar topib bu kabi masalalarda murojaat qilayotgan talabalar kontraktini ma'lum miqdorini to'lashga yordam bermoqda. Ammo, bu aniq va har tomonlama muakammal tizim deb bo'lmaydi.

Agar fond faoliyati tashkil etilsa, bu orqali universitet talabalarga moddiy jihatdan yordam berish funksiyasining ma'lum qismlari fondga o'tadi. Ya'ni, talabalarining o'zlari talabalarga yordam beradi.

Ushbu fond jamg'armasi oliy ta'lim muassasalari tizimida yangilik bo'lib, boshqa oliy ta'lim muassasalari uchun andoza bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu fond faoliyati tashkil etilib, to'g'ri tartibga qo'yilsa, bu nafaqat universitetimizdagi, balki O'zbekistondagi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun yangilik bo'lib, universitetimizning imidjini ko'tarishga yordam beradi.

Talabalar kontrakt mablag'larini to'lash uchun ishlashga majbur bo'lmaydi.

Yuqorida eslatib o'tilganidek, kontrak to'lovlarini to'lashga qiynalib, pul topish maqsadida ishlashga majbur bo'layotgan talabalarga kontraktlari fond tomonidan to'lab berilgandan so'ng, talabada o'zini ustida ishlashga, turli xil to'garaklarda qatnashishga yetarli darajada vaqti bo'ladi.

Fond faoliyatini tashkil etish uchun birinchi navbatda fond faoliyatini tartibga soluvchi nizom ishlab chiqish va komissiya guruhini shakllantirish zarur.

Dastlab fond uchun pul mablag'i universitet hisobidan va homiylarning yordami orqali shakllantiriladi. Dastlabki kontrakt to'lovlari to'lanib, talabalar ishga joylashganidan so'ng fond uchun mablag'lar faqat kontrakti to'lab berilgan talabalarining oylik ish haqi mablag'laridan shakllantiriladi.

Fond faoliyatini tezroq rivojlantirish maqsadida kontrakt to'lovlari dastlab 4-kurs talabalarining ikkinchi semestri uchun to'lab beriladi. Sababi, fond faoliyatini tezroq rivojlantirish va to'langan kontrakt pullarini fond

jamg'armasiga qaytarish fond faoliyatini ildamroq rivojlantirishga xizmat qiladi. Keyinchalik fond jamg'armasi kengayib borgandan keyin, pastki kurs talabalarining ham arizalari qabul qilinib kontrakt to'lab beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Tilea D.M., Contributions to improvement of accounting in Romanian educational institutions, Universitară Printing House, Bucharest, 2012;
2. Commission Européenne, Structures des systemes d'enseignement et de formation initiale dans l'Union Européenne, Bruxelles, 1995;
3. Eurydice. Management, monitoring and support staff. European glossary on education, Volume 4. Brussels;
4. Eurydice (2007) Key Data on Higher Education in Europe, 2007 edition.
5. Altbach, Phillip G., Liz Reisberg, and Rumbley, Laura E. (2009). Trends in Global Higher Education: Tracking an Academic Revolution. Paris UNESCO. [A report prepared for the 2009 World Conference on Higher Education] Chapman, Bruce, (2006), Government Managing Risk: Income Contingent Loans for
6. Social and Economic Progress. London: Routledge. International Comparative Higher Education Finance and Accessibility Project Website at: <http://www.gse.buffalo.edu/org/IntHigherEdFinance>
7. Johnstone, D. B. (2013). Public Universities in an Era of Continuing Austerity: More of the same or Profound change. Faculty Senate Bulletin: A Publication of the state University of New York University Faculty Senate. Fall/Winter 2013-14, pp. 11-14.

T/r	F.I.O	Fakultet	Kurs	Kontrakt to'lab berilishi lozim bo'lgan o'quv yili	Semestr	To'lab berilayotgan kontrakt miqdori	Talabaning tahminiy ish haqi	Talabaning oylik ish haqiga nisbatan to'lagan pul miqdori	Oylik ish haqidan har oy fondga to'lagan ish haqi foiz miqdori	Ishga joylashganda n so'ng fond mablag'ini to'lash muddati	Fondga umumiy qaytarilgan pul mablag'i	Kontrakt va to'langan summaning oraliq farq miqdori
1	Qodirov Baxodir Tursun o'g'li	Xususiy huquq fakulteti	4	2024/2025 o'quv yili	2-semestr	6.222.223	4.000.000	15%	600.000	1.5 yil	10.800.000	4.577.777